

"ONA TILI" VA "O`QISH SAVODXONLIGI" FANLARI BO`YICHA YARATILGAN DARSLIKLARDAGI MATNLARNING MAZMUNIGA QO`YILGAN TALABLAR

Hasanova Komila Toxirovna

Osiyo xalqaro universiteti, 1-bosqich magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarning "Ona tili", "O'qish savodxonligi" darsliklarini mazmunan yangilash, yangi davr ruhiga moslash, chunki ushbu darsliklar mustaqil O'zbekistonning ko'rар ko'zi, kelajagi, yaxshi kunlaridan xabar beruvchi yosh ko'ngil egalarining qalbida ezgu niyatlarni uyg'otuvchi, yaxshilik urug'ini qadovchi, fan sirlaridan dastlabki voqif etuvchi ilk ma'naviy ko'makdosh darsliklar ekanligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim jarayoni, savod chiqarish, darslik, qadriyat, ta'limiyy-tarbiyaviy asos, milliy o'zlik, kitobxonlik, mafkura, o'qitish nazariyasi.*

Mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni qurish maqsad qilingan va bu amalga oshirilayotgan ekan, bu jarayonda yoshlarning o'rni va ro'li alohida ahamiyatga ega. Zero, yoshlar bizning kelajagimiz, avlodlardan meros qolgan muqaddas zaminni yuksaltirish, ilg'or davlatlar darajasiga ko'tarish ularning bilimi, iste'dodi, jasorati, ma'naviy barkamolligiga bog'liq. Shuning uchun ham birinchi Prezidentimiz o'zining barcha asarlari va ma'ruzalarida yoshlar tarbiyasini markaziy o'ringa qo'yish bilan, uni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"¹ degan da'vatlari ta'limganing sifatli va samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarning ona tili, o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'limga tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy ta'limiyy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'lmini o'qish ta'limsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Jamiyat va ilm-fan tinimsiz taraqqiy etmoqda. Yangiliklarni ta'limga jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kun o'qituvchisining vazifasidir. Bilimli, yuqori malakaga ega bo'lgan o'qituvchigina jamiyatning ta'limga oldiga qo'ygan vazifasini amalga oshirishga qodir bo'ladilar. Bunda avvalo, milliy mustaqillik tufayli yuzaga kelgan voqeliklar dasturulamal vazifasini o'tayotir. Ta'limga sohasida olib borilayotgan islohotlar darsliklarga qo'yilayotgan talablarni yanada oshirmoqda. Jumladan, maktab darsliklarining har to'rt-besh yilda yangilanayotgan avlod o'z maqsad-vazifalariga ega. Bu jihat ayniqsa, boshlang'ich sinflarning "Ona tili" va "O'qish savodxonligi"ning mazmun mohiyatida yaqqolroq kuzatilmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh..M. Erlin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirishiga barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 B.

Xalq ma’naviy dunyosining shakllanishida badiiy ijod va kitobxonlikning ahamiyatini katta. Boshlang`ich sinflarda o`quvchining kelajakdagi tafakkurini belgilab beruvchi ruhiy, ta’limiy-tarbiyaviy asos yaratiladi. Jumladan, 1-4-sinflarda o`quvchilar bolalar yozuvchilarining asarlarini o`qish jarayonida ularni mustaqil mutolaa qilish ko`nikmasi shakllanadi. Endilikda bu borada qator ijtimoiy-siyosiy islohotlar ham amalga oshirilmoqda. Zero, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`g`risida”gi farmoyishi shu ma’noda ham muhim ahamiyatga ega. Unda ta’lim muassasalarida mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro`yxatlarini qayta ko’rib chiqish va o’quv jarayonida mutolaa etilgan asarlar asosida insho yozish tizimini joriy etish, adabiyot to’garaklari faoliyatini moddiy qo’llab-quvvatlash tizimini qayta ko’rib chiqish kabilar alohida ta’kidlangan.

Darhaqiqat, badiiy asarni o`qish, xususan, uqish his-hayajon bag`ishlaydi. Aslida kitobxon ham,- deb yozadi metodist olim S.Matchon,- yozuvchi singari ijodkor. U asar mutolaasi jarayonida muallif faoliyatini takrorlash yo`lidan boradi.² Bu jihat boshlang`ich sinf ona tili va o`qish savodxonligi kitoblari sahifasidan boshlanadi, desak yanglishmaymiz. Negaki, istiqlol davri darsliklarida yangi zamon, yangicha hayot shodliklari, xalqimizning haqiqiy quvonchi, millatimiz o’tmishi va bugunidan faxrlanish tuyg’usi o’z ifodasini topdi. Ajdodlarimizning qalb qo’ri-yu donishmandligi orqali yaratilgan ijod durdonalaridan bahramand bo’lib, o’tmish madaniyatimizni anglab yetish, ota-bobolarimizga munosib voris bo’lib yashashga intilishdek baxtga tuyassar bo’ldik. Mustaqillikdan so’ng respublikamizda ro’y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar, o’zbek tiliga davlat maqomining berilishi milliy qadriyatlarimizning tiklanishi oliy va umumta’lim sohasini hamda ular uchun mo’ljallab tuzilgan Milliy dastur va yangi avlod darsliklarni, o’quv qo’llanmalarni tubdan qayta tuzishni taqozo etdi. Ayniqsa, boshlang`ich sinflarning “Ona tili”, “O’qish savodxonligi” darsliklarini mazmunan yangilash, yangi davr ruhiga moslash juda muhim masalaga aylandi. Chunki ushbu darsliklar mustaqil O’zbekistonning ko’rar ko’zi, kelajagi, yaxshi kunlaridan xabar beruvchi yosh ko’ngil egalarining qalbida ezgu niyatlarni uyg’otuvchi, yaxshilik urug’ini qadovchi, fan sirlaridan dastlabki voqif etuvchi ilk ma’naviy ko’makdoshdir. Kelajak avlodning ma’naviy barkamol bo’lib voyaga yetishi ko’p jihatdan unga bog’liqdir. Zero, u yosh avlod ma’naviyatiga dastlabki poydevorni qo’yadi. Shuning uchun ularning mazmuni, mavzuviy dolzarbliji va rang-barangligi, zamonaviyligi juda katta ahamiyatga ega.

O’zbekiston prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi «O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi farmoni asosida tayanch o’quv rejasini takomillashtirish hamda o’zaro uzviy bog’liq fanlarni birlashtirish hisobiga ularning sonini optimallashtirish belgilandi. Bunda ko’zlangan asosiy maqsad endi songa emas, sisatga urg’u berish, turli fanlardagi takrorlarning oldini olishdan iborat.

«Avvalgi o’quv dasturlari mazmuni 90 foiz nazariyadan iborat bo’lib, o’qitish metodikasi yodlatishga yo’naltirilgan. Yangi Milliy o’quv dasturi mazmuni 50 foiz nazariya, 50 foiz

² Safo Matchon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. T., “O’qituvchi”, 199

amaliyotdan iborat bo'ladi va bu o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

O'quv dasturlarida baholash esa faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi. Fanlar soni va o'quv yuklamalari optimallashtirilib, o'quvchilar qiziqishiga ko'ra fanlarni tanlab o'qish imkonini beruvchi variativ o'quv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkonini yaratiladi.

Milliy o'quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda kiritiladi»³, dedi u.

Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo'ladi.

Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatiskasini o'rgatish, til strukturasiga oid qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan.

Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham bo'ladi.

Eski darsliklar til strukturasini o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasidan ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rnlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan.

Amaldagi darslikdan o'rincidan o'rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo'lishidan ko'ra, didaktik ahamiyatiga urg'u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar gayta ishlab chiqilgan.

Darsliklardi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldirilar edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan.

Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rnlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi.

Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, o'gzaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan.

Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiylar mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandard mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan.

³ Respublika ta'lim markazi direktori Shuhrat Sattorov AOKA press-xolida o'tgan brifingdagi suhbatdan...

Ma'lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og'zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan.

Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so'z qo'llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ohib berilgan.

Bundan tashqari, Milliy o'quv dasturiga ko'ra, endi "Ona tili" "O'qish savodxonligi" darsligi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarga sinflar kesimida o'qish tezligi bo'yicha ma'lum miqdordagi so'zni o'qishi kerak degan talab qo'yilmaydi. Boisi o'quvchilar uchun matnni o'qish tezligi emas, uni tushunish darajasi birlamchi ko'rsatkich sanaladi.

Bundan tashqari, "Ona tili" "O'qish savodxonligi" darsligi bo'yicha choraklik baholarni kundalik olingan baholarga qarab, yillik bahoni choraklik baholar asosida qo'yish amaliyoti bekor qilinadi.

"2022–2023-o'quv yilidan boshlab kundalik yig'ilgan baholar choraklik bahoga ta'sir qilmaydi. Chunki kundalik baho rivojlantiruvchi ahamiyatga ega, choraklik baho esa erishilgan marrani tekshirish uchun xizmat qiladi. Bu ikki baholashni o'zaro qorishtirish sifatga ta'sir qiladi", – deya ta'kidlangan brifingda.

Respublika ta'lim markazi bahoga jazo yoki rag'bat quroli emas, rivojlantirish vositasi sifatida qarash kerakligini qayd etdi. Bolalarni baho bilan qo'rqtishni bas qilish, ularga imkon qadar past baho qo'ymaslik, toki topshiriqni yaxshi bahoga bajarib kelmaguncha baholamay turish tavsiya qilindi.

Ko'rindanidiki, kompetensiyaviy ta'lim g'oyasi ta'llimning natijasi qanday bo'lishi kerak degan savolga javob berish uchun ilgari surilgan. Kompetensiyaviy yondashuv esa, ta'lim sifatini ta'minlash va buning an'anaviy usullar vositasida, ya'ni o'zlashtiriladigan ma'lumot hajmini oshirish yo'li bilan hal qilinmasligi orasidagi ziddiyat tufayli yuzaga kelgan muammoli holatdan chiqishni o'rgatadi.

Shuni ayтиб o'tish kerakki, kompetensiyalar ularni qo'llagandagina namoyon bo'ladi. Aks holda ular yashirin imkoniyatlар, ehtiyojsiz layoqat sifatida talqin qilinadi. Shu bois kompetensiya muayyan vaziyatda ma'lum bir layoqatni namoyon qilish, ko'rsatishni anglatadi. Kasbiy kompetentlik ushbu faoliyatni bevosita yuritayotgan mutaxassisdagina namoyon bo'ladi, biroq uning dastlabki shart-sharoitlari, asosi, zamini hamda alohida jihatlari kasbiy ta'lim jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Muammolarni hal qilishga o'rgatish shaxsnii ta'lim jarayonidayoq kelgusi hayotga va kasbiy faoliyatga amaliy jihatdan tayyorlaydi. Har qanday kompetensianing shakllanishiga ma'lum bir vaqt davomida to'plangan bilim va malakalar zamin yaratadi. Shundan kelib chiqqan holda, kompetensiyalarning shakllanishida shaxsiy sifatlar bilan bir qatorda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar asosiy rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent.: O'zbekiston. NMIU. 2016. - 56 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami). - T.: 2017.

3. Boshlang'ich ta'lif kontseptsiyasi. // tuzuvchilar:p.f.d, prof. R.G.Safarova, p.f.d., prof. B.S.Abdullayeva, fiz.-mat.f.n. A.D.Bahromov, N.T.Axmedova, F.I.Yusupova.- T.: RTM, 2015 yil.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lifda zamonaviy axborot texnologiyala-rini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. T.: Fan, 2007. - 160 b.
5. Pardayeva M. Umumiy o'rta ta'lifning davlat ta'lif standartlari va o'quv dasturlarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida joriy etish samaradorligi: muammo va yechimlar - "Maktab va hayot" j. - Toshkent, 2018. - №3. - B.88-89.
6. Temirov D.Sh. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy kompetentliligin rivojlantirishning ayrim masalalari // "Boshlang'ich ta'lif mazmunini modernizatsiyalash strategiyasi: nazariya va amaliyot". - O'zPFITI 2015 yil 6 may - 110-111 b.
7. Turdiyev N.Sh., Sultonova Q.A., Akbarova S.N.. O'quvchilarda tayanch va predmetga oid kompetentsiyalarni shakllantirishda qo'llaniladigan metodlar, usullar va pedagogik texnologiyalar haqida. - "Ta'lif texnologiyalari" jurnalı. - 2015. № 5, 99-104 b.
8. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - T. 3. - №. 1. - C. 146-149.
9. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - T. 3. - №. 1. - C. 146-149.
10. Irisbayeva Y. Using" Cluster" Method //Eastern European Scientific Journal. - 2018. - №. 6.
11. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. - 2019. - №. 1.
12. Irisbayeva Y. PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE EDUCATORS TO INTERACT WITH CHILDREN OF PRESCHOOL AGE